
Hosildorlik 30 sentnerdan oshdi

Beshariq tumanidagi 14-yig'im-terim otryadi tasarrufidagi 3 ta fermer xo'jaligining 61 gektar paxta maydoni mavjud bo'lib, rejadagi 210 tonnaga yaqin xirmonni bunyod etish uchun mavsum uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda.

Otryad hududida joylashgan "Bozorov Abdulla" fermer xo'jaligining 22,2 gektar paxta maydonida "Namangan-77" navi parvarishlangan. Joriy dehqonchilik yilida mo'l hosil yetishtirilgani bois birinchi terimning o'zida hosildorlik 30 sentnerdan oshdi. Otryad a'zolari uchun transport qatnovi, tushlik yaxshi yo'lga qo'yilgani hamda terim puli o'z vaqtida etkazib berilayotgani sababli terim sur'ati kundan kunga yaxshilanib borayapti.

B. MADIYOROV.

Suratni Sh. QORABOEV olgan.

2018-10-03 19:40:06